

Farg'onaazot

aksiyadorlik jamiyati



Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta



fargonaazot_uz



www.azot.uz



fargonaazot.uz



AO Farg'onaazot



info@azot.uz



t.me/fargona_azot

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqqa boshlagan.

Kimyogar

1-son (1725)
2024-yil,
31-YANVAR.

14-YANVAR — VATAN HIMOIYACHILARI KUNI BAYRAMI

Vatanim

Oh meni vatanim jonajon go'sham,
Yo'llarim yoritgan mayoqim o'zing.
Oldinga qo'yaman jonimni to'shab,
Hayotim o'zingsan, bayotim o'zing.

Qo'riqlasam arziysan tunlar uxlamay,
Eng sokin orombaxsh uyqumsan o'zing.
Chunki bu muqaddas burchimdir asli,
Hayotim o'zingsan, bayotim o'zing.

Ulkan yuksalishlar o'zinga xosdir,
Usmon-u Qodiriy aytgani rostidir.
Haqiqat erur sening har so'zing.
Hayotim o'zingsan, bayotim o'zing.

Qiyinchilik ko'rding Sho'ro davrida,
Dorulomon kunlar keldi vatanim.
Endi porlaydi yuzing-u ko'zing,
Hayotim o'zingsan, bayotim o'zing.

Ulg'ayay yosh avlod bag'ringda hurram,
Yangi O'zbekistonsan gullar zaminini.
Ajoyib kuy yangrar jaranglar sozing,
Hayotim o'zingsan, bayotim o'zing.

Tashabbuslar qolmas endi bir chetda,
Yoshlarga qanot bo'lgan yurtboshimiz bor.
Qadrlanib borar har tomchi tering,
Hayotimsan mening, bayotim mening!

VATAN HIMOIYASI — MUQADDAS BURCH!

Vatan — tug'ilib o'sgan muqaddas tuproq, ona zamin, bebaho diyor. Neki go'zal tariflar bo'lsa bari vatanga hos va mosdir. Vaqtlarning ayovsiz zarbalariga dosh bera olgan va albatta tarix yoza olgan zamindir Vatan. Buni esa yurt ishida yonadigan mardlarga, vatanparvarlik hissi balqib turgan insongina anglay olishi mumkin.

Umr tez o'tib ketar ekan. Tug'ilib o'sgan joyingni hurmat qilish va uni qadrlab ardoqlay olishing bu hayot mazmunining asosidir. Bu tug'ularning aksi bo'lgan vatanfurushlik, noshukurlik esa umming zavolidir. Hursandchilikda atrofga teran nigoh ila boqsang beixtiyor albatta yurtning sevasan, tuproqini ko'zinga surtasan. Axir bu yer ota-onang, do'stlaring, yaqinlaring yashab

kelayotgan, har bir farzandini boshini silagan diyorku.

Har kim o'z mamlakatining ramzlarini ardoqlashi, vatanga bo'lgan muhabbatini his qilishi, o'z kasbi va qilyotgan mehnati bilan buni izhor qilishi — chinakam vatanparvarlik hisoblanadi. «Men harbiy emasman», «Men davlat organida ishlamayman» deyishlik albatta xato bo'ladi deb hisoblayman. Har kim o'z kasbini sevib, qonunlarga amal qilib, halol mehnati ila xalqqa nafi tegsa ana o'sha inson vatan uchun xizmat qilyotgan insonlar qatorida bo'ladi.

Hozirgi kunda, internet tarmoqlari orqali, chet eldan turib xalq orasida ziddiyat keltirib chiqarishga urinayotgan, yoshlarimiz mavkurasini, ongini buzishga harakat qilyotgan

yovuz kuchlar ko'payib bormoqda. Mamlakatimizni xalqimizdan tom ma'noda tortib olishga urinayotgan, aholimizni manqurt insonlarga aylantirishga shay kuchlar payt poylab kelishmoqda. Bunday vaziyatlarda biz yosh kelajak, xalqimiz birlashib o'z aql idrokimiz bilan harakat qilmoqimiz va albatta chetdan bo'layotgan hiylayu nayranglarga qarshi chiqqa olishimiz, o'zimizning vatanparvarlik pozitsiyamizni ilgari sura olmoqimiz darkor. Vatan shaniga dog' tushurishga urungan shaxslarga nisbatan keskin, tanqidiy fikrlarini baralla aytishimiz lozim. Zero, Vatanni sevmok — iymondandir. Iymonli kishilar esa ikki dunyo saodatiga erishishi kundes ravshan.

Husniddin JALOLDINOV,
JMT sexi elektrgaz payvandchisi.



Korxonamizda 14-yanvar "Vatan himoiyachilari kuni" hamda O'zbekiston Respublikasi Quruqlik Kuchlari tashkil topilganligining 32 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekiston Armiyasi — mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida bayram tadbiri o'tkazildi.

Bayram tadbiriga Sharqiy harbiy okrug ofitser va zobitlari, Milliy gvardiya qo'riqlash boshqarmasi alohida bataloni xizmatchilari taklif etildi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi sadolari ostida ochildi. "Farg'onaazot" AJ boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov, Sharqiy xarbiy okrug ofitseri polkovnik Abduxayot Umarov, Milliy gvardiya qo'riqlash boshqarmasi alohida bataloni komandiri Faxriddin Mamajonovlar bayram dasturida tabrik so'zlari bilan sahnaga chiqdilar.

Tadbinning konsert dasturida Sharqiy harbiy okrug harbiy orkestri ijro etgan milliy va jahon estradasi navolari, Vatan tuyg'usini o'ziga jo etgan kuylar, Faxriy qorovul namoyish etgan chiqishlar va harbiy xizmatchilari tomonidan tayyorlangan qo'l jangi namoyishi korxona xodimlariga bayramona kayfiyat ulashdi.

Tadbir yakunida taklif etilgan Sharqiy harbiy okrug faxriylari va Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlashning bir qator xodimlari korxona rahbariyatining fahriy yorliqlari hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

O'z muxbirimiz.

"ENG YAXSHI INSHOLAR" TANLOVI

Vatan himoiyachilari kuni bayramini nishonlash arafasida harbiylarimizni sharafliq, xodimlar o'rtasida vatanga bo'lgan sadoqat, muhabbat tuyg'ularini qalanga tushirish maqsadida "Vatan himoiyasi - muqaddas burch!" mavzusida "Eng yaxshi insholar" tanlovi o'tkazildi.

Umuminsoniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan mazkur tanlovda nizomga asosan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar ishtirok etishi belgilab qo'yilgan bo'lib, tarkibiy bo'linmalari arizalariga ko'ra, tanlovda jami 14 nafar xodim ishtirok etdi. Tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlari nizom mezonlari bo'yicha vakolatli hakamlar hay'ati tomonidan baholandi. Tanlov natijalariga ko'ra 1-o'rin Sanitar laboratoriya sexi laboranti Zulxumor Badalovaga, 2 — o'rin Karbamid ishlab chiqarish sexi mashinisti Muxlisa Ikromaliyevaga va 3 — o'ringa esa ikki nafar yoshlarimiz, Aloqa sexi kabel-payvandchisi Feruza Nomonjonova hamda Sinov laboratoriyalar kompleksi yetakchi mutaxassisi Dilnoza Abdumajitovaga nasib etdi.

G'olib va sovrindorlar korxona ma'muriyati tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



"KIMYOGAR" GAZETASI 45 YOSHDA!

Quyidagi maqola muallifi mehnat faxriysi, Respublika miqyosidagi pensioner Muhammad Rizayevich Mahmudov ishdan bo'sh vaqtlarida jurnalistika sohasida ham qalam tebratib turadi. Uning sermazmun va qiziqarli maqolalari Respublika va viloyat gazetalari tez-tez chiqib turgan.



"Kimyogar" (dastlabki nomi "Ximik") gazetasining birinchi sonidan boshlab (01.01.1979-yil) shu kungacha, mana 45 yildirki o'zining maqolalari bilan gazeta sahifalarida qatnashib kelmoqda.

Muhammadjon Mahmudovning "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatidagi umumiy ish staji 57 yilni tashkil etgan bo'lsa, bundan 18 yil xavfsizlik texnikasi bo'limi bilan bog'liq.

10-sentabr 2018-yildan nafaqada bo'lishiga qaramay, yoshi 86 oshgan bo'lsada Muhammadjon aka hali tetik, aqli-xushi joyida, "Kimyogar" gazetasi, korxona bilan aloqasini uzgani yo'q va tez-tez gazeta sahifalarida o'zining maqolalari bilan qatnashib kelmoqda. Jumladan "Kimyogar-40 yoshda" (yanvar 2019 -yil-ruscha va o'zbekcha), shoir Zulfya Isroilova xotirasiga bag'ishlangan "Unutilmas uchrashuvlar" (mart 2019-yil), "Bir korxonada 60 yil" Jonmirza Orifov haqida (avgust 2021-yil), sexlarni qurilishiga va ishga tushirilishiga ba-

g'ishlangan tarixiy voqealar — "Aloqa sexi 60 yoshda", "Amiak-3 sexi — 40 yoshda", korxonaning 60 yilligiga bag'ishlangan "E'tafoliy yo'l" (2022-yil), "Amiak selitrası va azot kislotasi ishlab chiqarish sexlari — 20 yoshda" va yana bir qator maqolalari, nafaqaga chiqqanidan keyin 2019-2023 yillarda yozilgan va "Kimyogar" gazetasining sahifalarida munosib o'rin olgan.

Muhammad Rizayevich bundan keyin ham "Kimyogar" gazetasi bilan aloqalarni uzmay, o'zining maqolalari bilan qatnashib keladi deb umid qilamiz. Shu o'rinda, yubiley munosabati bilan Muhammad Mahmudovga sihat-salomatlik, uzoq umr tilagan holda gazetamizning 50 yillik yubileyini ham birga nishonlash nasib qilishini Yaratgandan so'rab qolamiz.

— Yangi yilning ilk kuni, ya'ni 2024-yilning 1-yanvarida sevimli "Kimyogar" gazetamizning tashkil etilganiga roppa-rosa 45 yil to'ldi. Har

bir voqeaning o'z tarixi bo'lganidek, "Kimyogar" gazetamiz ham o'z tarixiga ega. Bu tarixiy voqea meni yodimda yaxshi saqlanib qolgan. Gazetani katta hayot yo'liga oq yo'l tilab, kuzatib qolgan tashkilotchilar — korxonamizning sobiq bosh direktori Sattor G'ofurovich Yoqubov, partiya qo'mitasi kotibi To'lanboy Xamdov, gazetaning birinchi muxbiri — viloyat radioeshittirish qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan Akram aka Qambarov hamda Respublikada xizmat ko'rsatgan jurnalist Vog'iz Muzaffarovlar gazetaning birinchi sonini azotchilar jamoasiga taqdim etishgan. "Kimyogar" gazetasi birinchi sonida tabriknomalar bilan bir qatorda ishchi-xizmatchilar tomonidan yozilgan maqolalar, shoir Turg'unboy Mahmudovning "Qutlug' yil" nomli she'ri chop etilgan. Bugungi shodiyona kunida sevimli gazetamizga turli davrda muxbirlilik qilgan mohir jurnalistlarimizni eslab o'tmay bo'lmaydi. Ular Akram Qambarov,

Vog'iz Muzaffarov (1979-1980 yillar), Aleksandr Oreshkin (1980-1983 yillar), Abdusalom Ergashev (1983-1986 yillar), To'xtasin Azimov (1986-1988 yillar), Isroiljon Ibroximov (1988-1995 yillar), To'xtasin Azimov (1995-2007 yillar), Muzaffar Mamatqulov (2007-2015 yillar), Rustam Mamajonov (2015-2021 yillar), 2021-yildan "Kimyogar" gazetamizga yosh jurnalist E'zozxon Abdullayeva dastlab muxbir, hozirgi kunda muharrirlik qilib kelmoqda. Gazetamiz har bir sonini qiziqarli va sermazmun chiqishiga gazeta muxbirlari bo'lib ishlagan Ominaxon Saidibroximova, Yorginqoy Qosimova, O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi Ne'matjon Raxmonov, Galina Sobolevskaya, E'zozxon Abdullayeva, Otabek Begidjanov, jamoatchi muxbirlar Anvar Saidov, Andrey Kim, Alla Chernova va boshqalar o'zlarining maqolalari bilan faol qatnashganlar.

(Davomi 2-betda).



"KIMYOGAR" GAZETASI 45 YOSHDA!

(Boshlanishi 1-betda). Men korxonamizning hayot oynasi bo'lgan "Kimyogor" gazetasi bilan birinchi sonidan buyon o'zimning maqolalarim bilan qatnashib kelmoqdaman. Yoshligimdan jurnalistikaga matbuotga qiziqqanligim sababli 1965-yili viloyat "Коммуна" (hozirgi "Farg'ona haqiqati"), "Ферганская правда" gazetasi qoshida ochilgan ikki yillik kechki jurnalistika universitetidagi mashg'ulotlarda

qatnashganman. Unda yetuk, mohir jurnalistlar A. Alyabov, A. Mirzayev, V. Muzaffarov, V. Vilchek, O'z.TAG muxbirlari va boshqa matbuot xodimlari ma'ruzalarini tingladim va saboq oldim. Olgan saboqlarim zoya ketmadi. Respublika hamda viloyat gazetalariga maqolalar yozdim. Mening birinchi maqolam 1963-yili "Правда Востока" gazetasida "Идѣт ферганская селитра" nomi bilan nashr

etildi. Keyinchalik turli mavzudagi maqolalarim "Совет Узбекистана", "Адолат yo'li", "Ферганская правда" gazetalarida chop etildi. Mana qirg'yildirki "Kimyogor" gazetasi bilan chambarchas bog'langan holda faol qatnashib, ilg'or ishchilarimiz, mehnat fahriylari, ishlab chiqarishdagi yangiliklar, erishilgan yutuqlarimiz haqida ayniqsa, xavfsizlik texnikasiga oid savol-javoblarga bag'ishlangan maqolalar berib

bermoqdaman. "Kimyogor" gazetasi ishchi xodimlarning haqiqiy minbari jamoada ishlovchilarning orzu-niyatlari, muammolari va dildagilarni, erishilgan yutuqlarimizni ifodalaydigan yorqin solnomadir. Ishonchim komikli, "Kimyogor" gazetasi bundan buyon ham Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan qator qonun va qarorlarni, ayniqsa yaqinda qabul qilingan

"O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatining jadal rivojlanirish chora-tadbirlar to'g'risida"dagi qarorlarini amalga oshirishda korxonamiz ishchi, muhandis-texnik xodimlarimizni xormay-tolmay mehnat qilishiga, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga chorlaydi.

"Kimyogor" gazetasi 45 yilligi munosabati bilan tahririyat xodimlarini, jamoatchi muxbirlarni, korxonamizning barcha ishchi xizmatchilarini chin qalbdan tabriklayman. Ularga sihat-salomatik, uzoq umr tilayman!

Muhammad MAHMUDOV,
mehnat faxriysi.

TAVALLUD AYYOMINGIZ MUBORAK BO'LSIN, AZIZ HAMKASBLAR!

"Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati bir katta inoq oila bo'lib, unda ko'p yillardan beri ishlab keladigan, o'z kasbini sevadigan, sidqi dildan mehnat qiladigan xodimlar talaygina. Shunday xodimlarning ayrimlari yanvar oyida o'zining 50 yillik yubileyini nishonlaydilar.



Qutqaruv otryadining 1-toifali qutqaruvchisi **Xakimjon Yusufjonovich Alifjonov**, Elektr ta'minoti sexining elektr jihozlarni ta'mirlash bo'yicha elektromontyori **Said Raxmatovich Kuzibayev** va Maksud G'anjionov, Avtotransport sexining haydovchisi **Xusanboy Abdulkayevich Tuxtasinov**, Soda mahsulotlarini ishlab chiqarish sexining masofadan boshqarish puliti operatori **Shoxida Adxamovna Tursunaliyeva**, Mexanikaviy ta'mirlash sexining katta ustasi **Sharobiddin Zaylobiddinovich Juraboyev**, Aloqa sexining katta ustasi **Alisher Muxtarovich Axmadaliyev**, Davolash sog'lomlashtirish diagnostika sexining navbatchi hamshirasi **Nasibaxon Ortikovna Tuxtasinova**, Tashqi suv ta'minoti sexining chilangari **Shukurullo Obidovich Otaxonov**, Markazlashtirilgan buxgalteriya buxgalteri **Gulsara Salixovna Rafikova**, AS-72M sexining ishchisi **Xurshida Maxmudjonovna Jurayeva** va ta'mirllovchi chilangari **Islombek Zulponovich Nurmatov**, Ammiak-3 sexining elektromontyori **Xasanboy Abdulkayevich To'xtasinov**, Ichki suv-

bug' ta'minoti va sanoat oqovallari sexining elektromontyori **Dilorom Amiraliyevna Toirova**, nasos qurilmalari mashinisti **Tassadduk Tulkinovich Tuxtabayev**, Jihozlarni markazlashtirilgan tarzda ta'mirlash sexining chilangari **Fayzullo Xashimovich Xakimov**, Nazorat o'lchov asboblari va avtomatika sexining energetigi **Abdutilib Abdumutalovich Xalilov**. **Sizlarni korxona ma'muriyati, jamoangiz va tahririyatimiz nomidan yubiley bayramingiz bilan chin yurakdan tabriklaymiz! Sizlarga mustahkam sog'lik, kelgusi ishlaringizda kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilab qolamiz! Namunali hulgingiz va mehnatsevarligingiz va korxonamiz rivojidadagi ko'pyillik faoliyatingiz uchun o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz! Tug'ilgan kuningiz bilan!**

Aziz mushtariylar, gazetemizning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tug'ilgan kunlarini nishonlayotgan xodimlarimizning ba'zilari to'g'risida so'z yuritsak.

Qutqaruv otryadi 1-toifali qutqaruvchisi **Hakimjon Yusufjonovich Alifjonov** 1974-yil 1-yanvarda Oxunboboyev (hozirda Qo'shtepa tumani) tumanida ziyolilar oilasida tavallud topgan. 1989-yili o'rta maktabning 8-sinfini bitirib Farg'ona shahridagi maxsus harbiy maktabga o'qishga kirgan. Ushbu bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagach, harbiy qismlarning birida 4 yil harbiy xizmatni o'tab, katta serjant unvoniga sazovor bo'lgan. 2001-yili "Farg'onaazot" OAJning Harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limiga ishga kiradi. 2006-yil 4-sentabrda Qutqaruv otryadiga qutqaruvchi vazifasiga o'tkazilgan. Hozirgi kunda korxonadagi umumiy staji 23 yilni tashkil etamoqda. Qutqaruv otryadida esa 18 yildan buyon ishlab keladi. Oilali, 4 nafar farzandning otasi va 4 nafar nabiraning bobsi.

Ishdan tashqari Hakimjon aka uzumchilik bilan shug'ullanadi va uyda mebel jihozlarni yasaydi. Sportni voleybol turiga qiziqadi va shu bois Qutqaruv otryadida tashkil etilgan voleybol komandasing faol ishtirokchisi.

Said Raxmatovich Kuzibayev Farg'ona shahrida tug'ilgan, 1991-yili o'rta maktabni bitirib, 1992-1994 yillarda harbiy xizmatni

o'tadi. Otalari Raxmat aka Kuzibayev ham ko'p yillar mobaynida elektr ta'minoti sohasida ishlaganlar. Shu bois bo'lsa kerak Said aka ham ota kasbiga qiziqib, Avtoelektrik kursiga o'qishga kirgan va o'qishni tamomlagach esa 1994-yili Farg'ona paxta tozalash zavodida ishlagan. 2008-yilda shu kunga qadar "Farg'onaazot" AJda ishlab kelmoqda. Dastlab bizning korxonamizning Mexanikaviy ta'mirlash sexida 5-razryadli elektromontyor, so'ng ushbu sexda elektr uskunalarini ta'mirlash bo'yicha 8-razryadli usta va mehnat muhofazasi bo'yicha vakil bo'lib ishladi. 2012-yildan buyon Elektr ta'minoti sexining 50-sonli podstansiyasida navbatchi elektromontyor bo'lib ishlab kelmoqda. Said Raxmatovichni umumiy ish staji 30 yil, korxonadagi ish staji 16 yilni tashkil etadi. Oilali, hozirda 3 nafar farzandlarni tarbiyalab kelmoqda.

Maksud G'anjionovich Oxunov Oxunboboyev tumani (hozirda Qo'shtepa tumani)da tug'ilgan. 1988-yili maktabni bitirgach Sanoat texnikumiga Sanoat korxonalarini elektr ta'minoti yo'nalishi bo'yicha texnik elektrlik sohasiga o'qishga kirgan. Dastlab mehnat faoliyatini milliy hunarmadchilik sohasida yuritganiga qaramasdan o'zi o'qigan sohaga qiziqishi tufayli 1995-yili Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasining Elektr ta'minoti sexining podstansiyalarini ta'mirlash bo'limiga 3-razryadli elektromontyor lavozimiga ishga kirgan hamda shu bo'limda 7 yil davomida ish malakasini oshirib, 5-razryadli elektromontyorgacha o'sadi. 2002-yili ushbu sexning rele himoyasi va avtomatikasi bo'limiga o'tkazilgan va 2009-yili shu bo'limda avtomatik tarzda maxsus o't o'chirish bo'yicha usta lavozimida ish boshlagan. O'tgan yillar davomida Maksud G'anjionovich korxonamizda bo'lib o'tgan modernizatsiya ishlarda, Bug-qozon sexi, "Ammiak-3" sexi va Karbamid sexining modernizatsiya ishlarda faol ishtirok etdi. 2022-yildan bugungi kunga qadar Elektr ta'minoti sexining 50-sonli podstansiyasida 5-razryadli navbatchi elektromontyor vazifasida ishlab kelmoqda.

Oilali 3 nafar farzandi va 3 nafar nabirasi bor. Ishdan hollis vaqtida o'z tomorasida uzumchilik bilan shug'ullanadi va oila budjetiga qo'shimcha daromad keltiradi.

Maksud aka bizning korxonamizda 29 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'tgan yillar davomida korxonamizdagi usta-shogird an'anasiga ko'ra ko'plab shogirdlar tayyorlab kelgan ustoz xodimlardandir.

Alisher Muxtorovich Axmadaliyev Toshloq tumaning Qumariq qishlog'ida ziyolilar oilasida tug'ildi. 1989-yili maktabni bitirgach dastlab San'at bilim yurtiga o'qishga kirgan. 1993-yili Farg'ona shahridagi 4-son Musiqqa maktabida, 1995-1996-yillarda "Yuzheptenepepa6opka" ishlab chiqarish birlashmasida ishlagan. 1997-yili Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasining Aloqa sexiga 2-razryadli elektromontyor vazifasiga ishga kelgan. Yillar davomida o'z ustida ishlab 2003-yili katta usta darajasiga yetdi. O'sha davrlarda II-sanoat maydonida katta qurilish avjida edi, shunday mas'uliyatli davrda Alisher Muxtorovichni II-sanoat maydonidagi aloqa sexi bo'limiga uchastka boshlig'i lavozimiga tayinlanib, AS-72M va AK-72 M sexlarining montaj ishlariida faol qatnashdi. Alisher aka hozirda Aloqa sexi tezkor aloqa bo'limining 9-razryadli katta ustasi lavozimida ishlab kelmoqda.

Oilali 3 farzandni tarbiyalamoqda. Alisher Muxtorovich 25 yildan ziyod vaqt mobaynida Aloqa sexida mehnat faoliyatini yuritmoqda va ko'pdan-ko'p shogirdlar chiqargan.

Otabek BEGIDJANOV.

ISHCHI – XODIMLAR UCHUN YARATILGAN IJTIMOY-MAISHIY SHAROITLAR O'RGANILMOQDA

Azaldan xodimlar bilan muloqot, ish joyi sharoitlarini ko'zdan kechirish, muammolarni o'rganish va o'z vaqtida hal etish jamiyatimizning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib kelgan. Har qanday masala yechimini topish, savollarga javob berish, takliflarni o'rganish orqali nafaqat ish unumdorligini oshirish, balki soha vakillarining ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga erishishning yagona yo'lidir.

Jamiyat boshqaruv raisining topshirig'iga asosan, ishchi guruh tuzilib, korxona sexlarida ishchi-xodimlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishish, suhbatlar o'tkazish, muammolarni o'rganish maqsadida yanvar oyida korxona tarkibiy bo'linmalariga tashriflar uyushtirilmoqda. Hozirda Havo ajratish sexi, Nazorat o'lchov asboblari va avtomatika sexi, Markaziy kimyo laboratoriyasi, Sinovalaboratoriya kompleks, Qutqaruv otryadi, Sanitar laboratoriyasi, Elektr ta'minoti sexi, Ichki suv-bug' ta'minoti va sanoat oqovallari sexi, Sirka angidridi va Sirka kislotasini qayta tiklash sexilari har taraflama o'rganib chiqildi.

Shuningdek, o'tkazilgan uchrashuvlar davomida xotin-qizlar kengashining 2023-yil ish rejasiga bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 208-son farmoni hamda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 401-son qarori mazmun mohiyatini yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida korxona ma'muriyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan ko'rsatilgan moddiy yordamlar haqida ma'lumot berib o'tildi.

KORXONADA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI QISQARTIRISH VA MAHSULOT TANNARXINI PASAYTIRISH BUGUNGI KUNNING USTUVOR VAZIFASIDIR

Korxonaning majlislar zalida 2024-yil 16-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida "O'zkmijosanoat" AJda o'tkazilgan kengaytirilgan videoselektor yig'ilishida tarmoq korxonalari faoliyatining uzluksizligini va tarmoqlarning barqaror ishlashini ta'minlash hamda sanoat mahsulotlari tannarxini 15 foizga pasaytirish bo'yicha yangi imkoniyat va zaxiralarni aniqlash topshirig'i ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda, har bir sex va bo'lim boshliqlari, bosh mutaxassislar qo'yilgan topshiriqlarga jiddiy bittirgach ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi oshib ketishini oldini olish bilan birga raqobatbardoshligini oshirish uchun bor imkoniyatlarini ishga solishlari zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, asosiy e'tibor amalga oshirilishi kechiktirib bo'lmaydigan ustivor chora-tadbirlarga qaratildi. Xususan, tasdiqlangan normativ-texnik hujjatlar doirasida texnologik jarayonlarni ratsionalizatsiyalash va moddiy xomashyo va energiya resurslari sarfi me'yorlarini maqbullashtirish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish, xarid qilinadigan xomashyo, materiallar va butlovchi buyumlar qiymatini pasaytirish, foydalanish xarajatlari va qo'shimcha xarajatlarni qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish, xodimlar sonini maqbullashtirish, shu o'rinda, ichki zaxiralarni topish va ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir etuvchi boshqa omillar kabi masalalar yig'ilish kun tartibidan joy oldi.

Tanqidiy ruhdan o'tkazilgan yig'ilishda barcha tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga belgilangan muddatlarda ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish to'g'risida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi. Majlis yakunida yig'ilish ishtirokchilarining takliflari tinglandi va savollariga javoblar berildi.

"YUKSALISH" HARA-KATI XALQARO TASHKILOT SIFATIDA RO'YXATDAN O'TDI

Harakat O'zbekistondagi islohotlarni amalga oshirishga ko'maklashish uchun fuqarolar, davlat va jamoat arboblari, akademik doiralari, biznes hamjamiyati, NNTlar vakillari, xorijdagi vatandoshlarni ixtiyoriylik asosida birlashtirishni maqsad qilgan.



Bugungacha Harakat tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mustaqil ekspertlari platformasi, mintaq NNTlarining birinchi akademiyasi tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston hamda Turkiyaning ikkita shahri "qardosh shaharlar" maqomiga ega bo'ldi.

2024-yildan "Yuksalish" harakati xalqaro tashkilot sifatida mintaq va rivojlangan mamlakatlardagi jamoat institutlari, "aql markazlari" hamda siyosiy doiralari bilan aloqalarini rivojlantirishga, "muloqot maydonlari"ni yaratishga ko'maklashishni rejalashtirgan.

Yuksalish harakati.

IS GAZI HAQIDA...

Kuzgi-qishki mavsumda sodir bo'ladigan favqulodda vaziyatlarning aksariyati is gazidan zaharlanish bilan bog'liq bo'ladi. Avvalo is gazining o'zi nima? Qanday xossalarga ega? degan savollarga javob beradigan bo'lsak, is gazi (CO) rangsiz, hidsiz zaharli birikma bo'lib, tabiiy gaz, yoqilg'i, ko'mir, o'tin cho'g'lari to'liq yonmasligi oqibatida hosil bo'ladi. Molekular massasi 28.0, zichligi 814 kg/m3. Suyuqlanish temperaturasi 191.50 C - 2050 C da qotadi. Suvda kam eriydi. Is gazi yonganda ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Atmosfera havosi tarkibida juda oz miqdorda is gazi bor. Tutun tarkibida 3 %, ishlangan gazlarda 13 %, portlovchi gazlar tarkibida esa 50-60 %gacha is gazi bo'ladi. Is gazidan shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarda, avtoullovlar turadigan parklarda, yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda, shuningdek uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pech bilan isitiladigan uylar, hammomlarda, dam olish palatkalarda yonuvchi moddadan to'liq yonmasligi natijada zaharlanish mumkin. Is gazi organizmga nafas olish a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz gemoglobin bilan kislorodga nisbatan 300 marotaba kuchli birikma karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalarga kislorod tashish xususiyati pasayib, gipoksiyaga, og'ir holatlarda esa-anoksiyaga olib kelishi hamda shu tariqa inson

hayotdan ko'z yumishi mumkin. **Tahillarga ko'ra, is gazidan zaharlanish holatlarining aksariyati quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelmoqda:** - fuqarolar tomonidan gaz va muqobil yoqilg'i (ko'mir, o'tin va boshqa) turlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik; - nstandart (qo'lbola yasalgan) yoki sertifikatga ega bo'lmagan isitish pechlar va anjomlaridan foydalanish; - isitish pechlarining dudburonlarini noto'g'ri o'rnatish; - gaz va boshqa muqobil yoqilg'i ga moslashtirilgan isitish pechlar hamda suyultirilgan uglevododor gaz ballonlarini (anjomlari)ni dam olish (uxlash) xonalariga olib kirish; - havo almashmaydigan xonalarni isitishda ochiq olov (ko'mir va o'tin cho'g'lari)dan foydalanish; - havoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuynuklarni berkitib (to'sib) qo'yish. Gaz plitasidan binoni isitish va uning ustida kiyimlarni quritish, shuningdek plitani nazoratsiz yoqilgan holatda qolishiga yo'y qo'yimaslik. Bundan tashqari, gaz sizzib chiqayotganini ochiq olov, masalan gurgut chaqib tekshirib ko'rish mumkin emas. Gaz ballonlarni issiqlik



manbaiga yaqin joyda qoldirmaslik lozim. Agar da binoda gaz hidi sezilsa, oyna va eshiklarni zudlik bilan ochish, ko'chaga chiqish va 104 raqami orqali gaz xo'jaligi avariya - dispatcherlik xizmati yoki 1050 raqami bo'yicha qutqaruv xizmatiga qo'ng'iroq qilish kerak. Bunday holatlarda chimqo, olov yoqish, elektr uskunalarini ishga tushirish taqiqlanadi.

N.TURSONOV,
"Farg'onaazot" AJ OBYXTTEB inspektori, kapitan.

ЖЕНСОВЕТ НА СТРАЖЕ ИНТЕРЕСОВ ТРУЖЕНИЦ ПРЕДПРИЯТИЯ

Следует особо отметить, что под руководством Президента нашей страны особое внимание уделяется заботе о женщинах, обеспечению их прав и интересов, повышению социальной активности, реализации их талантов и потенциала, укреплению здоровья.

О том какие работы в этой сфере осуществляются на нашем предприятии мы узнаем у ведущего специалиста отдела по социальному развитию и связям с общественностью Умиды Ахунджановой.



В начале года обычно принято подводить итоги уходящего года и намечать планы на предстоящий год, исходя из этого, скажите пожалуйста, какие работы в этом направлении были выполнены и что предстоит сделать в этом году?

Как известно основными целями и задачами профсоюзной комиссии по работе с женщинами являются всесторонняя поддержка работающих на предприятии женщин, улучшение их социально-экономического положения и улучшение условий труда, защита их законных прав и интересов, укрепление семейных отношений исходя из национальных ценностей, формирование здорового образа жизни, просвещение и развитие их духовности. Обеспечение исполнения постановлений Президента Республики Узбекистан и правительства, касающийся данной сферы. Руководствуясь выше указанными целями и задачами был составлен годовой план мероприятий. Так, в соот-

ветствии с утверждённым планом и в рамках правового просвещения в феврале и марте месяцах прошлого года совместно с юридическим отделом в цехах предприятия была проведена разъяснительная работа среди женщин, в которой были разъяснены суть и содержание Послания Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева к Олий Мажлису и народу Узбекистана, Указов Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин» и «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы».

Также в прошлом году для обеспечения занятости женщин было оказано содействие в трудоустройстве работниц цеха Ацетатных нитей и производства «Полиамид-3», цеха РУК и УА, чьи рабочие места попали под сокращение в связи с оптимизацией численности предприятия.

В 2023 году на систематической основе при участии начальников цехов и женских активистов из-учались вопросы, связанные с

созданием достойных условий труда для женщин, охраны труда и других прав. По выявленным в ходе изучения недостаткам были внесены предупреждения и достигнуто положительное решение вопросов.

В канун Международного женского дня 8 марта для женщин предприятия было организовано праздничное мероприятие, а также выплачена премия в размере 500 000 сумов, кроме того за самоотверженный труд 30 работниц были поощрены ценными подарками администрации и профсоюзного комитета предприятия.

В течении прошлого года были проведены культурно-просветительские мероприятия, «круглые столы». Так в марте месяце прошёл творческий конкурс, приуроченный 108 летней годовщине со дня рождения известной узбекской поэтессы Зулфии, победители конкурса получили ценные призы.

В целях широкой пропаганды здорового образа жизни, были организованы спортивные состязания по различным видам спорта. И в этой связи необходимо особо



отметить соревнования по волейболу среди женщин. В результате которого была сформирована женская волейбольная команда, которая приняла участие в областном этапе волейбольного турнира и заняла призовое третье место. Участницы волейбольного турнира были поощрены ценными подарками администрации и профсоюзного комитета предприятия.

Кроме того, было обеспечено активное участие девушек предприятия на марафоне, организованном первичной организацией Совета Союза молодёжи предприятия. На котором приняли участие более 80 работниц предприятия.

В целях обеспечения культурного досуга в праздничные дни (Навруз, «День химика», День независимости и другие государственные праздники) работницы предприятия посетили концертные и другие торжественные мероприятия. Также в течении года были организованы экскурсионные поездки по историческим городам республики.

В рамках правового всеобуча в апреле месяце были организованы тренинги по новому Трудовому Кодексу и обновлённой Конституции Республики Узбекистан, на котором активное участие принимали работницы предприятия.

На предприятии организована психологическая помощь женщинам по различным обстоятельствам, попавшим в сложные жизненные ситуации. 10 апреля прошлого года психологом предприятия Наргизой Эргашевой был организован психологический тренинг на тему «Повышение эффективности труда в коллективе», на котором принимали активное участие работницы предприятия.

В мае месяце был проведён конкурс «Молодой книголюб» с участием молодых сотрудников предприятия. Призёры конкурса были награждены ценными подарками предприятия.

1 июня 2023 года в Международный день защиты детей, активисты профсоюзной комиссии по делам женщин навестили 42 семьи, которые воспитывают детей-инвалидов, им была оказана социаль-экономическая поддержка.

В течении всего года систематически рассматриваются обращения граждан, при этом особое внимание уделяется обращениям женщин.

С 5 июня по 8 июля 2023 года в цехах II- промышленной площадки при участии психолога предприятия было проведено анонимное анкетирование, посвящённое вопросам сохранения семьи, гендерного равенства, прав детей и семейного насилия.

В соответствии с коллективным договором за шесть месяцев прошлого года оказано содействие в получении материальной помощи работницам предприятия.

Как известно 2024 год в Узбекистане объявлен Годом поддержки молодёжи и бизнеса, исходя из этого разработан и утверждён план мероприятий на этот год. В январе месяце по заданию председателя правления АО «Farg'onaazot» была сформирована рабочая группа, в задачи которой входит ознакомление с условиями, созданными для работников в цехах предприятия, проведение круглого стола, изучение имеющихся проблем. В ходе проводимых круглых столов с участием коллективов цехов тщательно изучаются условия труда работников предприятия, при этом особое внимание уделяется предложениям и пожеланиям женщин. Также проводятся разъяснительные работы о сути и содержании Указа Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности Комитета семьи и женщин» по Постановления «О дополнительных мерах по укреплению семьи и повышению активности женщин».

«БЕЗОПАСНОСТЬ В ЗИМНИЙ ПЕРИОД ИЛИ КАК ПЕРЕЖИТЬ ЗИМУ!»

Вот тема семинара, проводимого в производственных цехах АО «Farg'onaazot». Как учесть риски холодного времени года, чтобы предотвратить беду, как обстоят дела на предприятии с пожарной безопасностью? На эти и другие вопросы редакции «Кимёгар» ответил один из непосредственных организаторов и участников семинара, ведущий инженер управления ОТ, ТБ, ООС и ПБ ОПО акционерного общества «Farg'onaazot» Фазлиддин СОТИБАЛДИЕВ.



— Так как же обстоят дела с пожарной безопасностью на предприятии?

На предприятии со всей ответственностью относятся к качественному обучению ответственных должностных лиц и работников пожароопасных профессий мерам пожарной безопасности в соответствии с требованиями норм пожарной безопасности. Разработаны и скорректированы программы вводного и первичного противопожарного инструктажей, программы пожарно-технического минимума.

— Расскажите читателям нашей газеты о цели проведения сегодняшнего семинара.

Основной целью проведения нынешнего профилактического мероприятия в цехе Разделения воздуха является обеспечение безопасного проведения зимнего сезона на предприятии, предупреждения возможных чрезвычайных ситуаций и пожаров, отравлений различными химическими веществами персонала цеха.

— Судя по масштабу мероприятия на данном семинаре задействованы различные структуры предприятия, отвечающие за пожарную и промышленную безопасность, скажите пожалуйста кем организован семинар, а также о её сути и содержании?

Семинар был организован и проведён управлением ОТ, ТБ, ООС и ПБ ОПО, в сотрудничестве со Спасательным отрядом и сотрудниками Отдела Пожарной безопасности по защите объектов. На семинаре были сделаны доклады, где были подробно рассказаны о плане мероприятий, проводимых на предприятии в зимний период, такие как: установление противопожарного режима, разработка индивидуальных инструкций для цехов, лабораторий и различных участков с учетом их взрыво- и пожароопасности. Также было подробно разъяснено, как и в каких целях проводятся противопожарные инструктажи для работников при приеме на работу и ежемесячно с персоналом смен. Кроме того, до участников семинара было доведена суть и содержание проводимых профилактических обходов территории, складов хранения опасных и пожаровзрывоопасных материалов. В рамках семинара было проведено обучение ответственных за Пожарную безопасность лиц пожарно-техническому минимуму и по всем программам индивидуального и группового обучения персонала которые включены в ключевые моменты промышленной и пожарной безопасности. Также были проведены дополнительные практические тренировки по отработке действий работников на случай возникновения пожара.

Так как решение проблемы пожарной безопасности во многом зависит от повышения уровня противопожарных мероприятий и знаний безопасности в целом, специалистом промышленной безопасности и инспекторами пожарной безопасности были разъяснены суть основных терминов и правил соблюдения пожарной безопасности. В ходе семинара была озвучена статистика причин возникновения пожаров. Так на сегодняшний день каждый второй пожар происходит из-за неосторожности обращения с огнем, а каждый четвертый из — за несоблюдения требований правил устройства и эксплуатации электрооборудования и бытовых приборов.

По завершении мероприятия работникам были даны разъяснения по строгому соблюдению правил промышленной безопасности, техники безопасности и пожарной безопасности, а также правил, указанных в инструкциях СО-1, СО-2, СО-3.

— Какие рекомендации вы можете дать нашим читателям подводя итог прошедшему семинару?

Все мы с вами знаем, что пожар легче предотвратить, чем потом ликвидировать. Поэтому со своей стороны я рекомендую нашим работникам, независимо от нахождения их на рабочем месте либо по месту проживания не забывать о мерах пожарной безопасности.

Беседу записал
Отабек БЕГИДЖАНОВ.

ОСТОРОЖНО, КОРЬ!

С конца прошлого года во всём мире и у нас в стране наблюдается тенденция резкого роста заболевания корью. Эксперты Всемирной Организации Здравоохранения отмечают, что проблема увеличения числа заражённых заключается в недостаточном уровне иммунизации населения. Иммунологи и вирусологи отмечают высокую степень заразности нынешнего вируса. Учитывая данные обстоятельства с вопросом, что из себя представляет корь и как обезопасить население обратились к врачу эпидемиологу ЛОДЦ Тиллабаевой Наргизе Хабибуллаевне.



Да, корь очень заразное заболевание и затрагивает болезнь все возрастные группы от 6 месяцев до 70 лет. На сегодняшний день в мире ежегодно корью заражаются около 40 миллионов детей, и более 10% из них имеют летальный исход. И это несмотря на то что вот уже 30 лет проводится вакцинация детей против кори. Также необходимо отметить тенденцию роста тяжелых форм кори, особенно среди пожилых людей.

Корь — острое инфекционное заболевание, относящееся к группе вирусных инфекций, передающееся воздушно-капельным путем, характеризующееся

интоксикационным и катарально-воспалительным синдромом, экзантемой. Вирус кори не устойчив к внешней среде, чувствителен к ультрафиолету и прямому солнечному свету, а потому погибает в течении 5-6 часов. Ещё одним свойством болезни является её устойчивость к антибиотикам.

Клиническая картина болезни. Заболевание начинается остро с повышения температуры тела 38-39 С и выше, сопровождается катаральными явлениями и конъюнктивитом. Со временем катаральные явления только нарастают, увеличиваются густые слизистые и гнойные выделения из носа,

голос становится осипшим. В начале заболевания наблюдается сухой лающий кашель. Кроме того, у больных наблюдается боязнь света (резь в глазах), обильное слезотечение, покраснение, конъюнктивы, отёк век.

Характерным симптомом кори является размягчение и покраснение слизистой оболочки полости рта и десен. Далее появляются пятна Бельского-Филатова-Коплика. Это бело-серые мелкие точки с красным участком на слизистой оболочке защёчной полости. Затем появляется своеобразная сыпь.

Классификация периода сыпи: период сыпи начинается на 4-5-й день болезни. У больного на лице и теле наблюдается макуло-папулезная сыпь. Первые элементы сыпи проявляются в виде небольших розовых пятен за ушами, на носу и на лбу. Высыпания начинают быстро увеличиваться, сливаются друг с другом и уже в первый день распространяются по всему лицу и шее. На второй день сыпь распространяется на тело и плечи. На третий день сыпь распространяется на руках и на ногах. Для кори характерно постепенное исчезновение сыпи.

Ещё раз повторюсь вирус кори передается от больных к здоровым людям воздушно-капельным путем. Источником заболевания является больной человек. Вирус можно выделить из крови, слизистых горла и носа, в первые дни катарального и сыпного периода болезни. Ещё одним неприятным свойством вируса является то, что он

легко распространяется в соседние помещения с потоками воздуха. Острые респираторные вирусные инфекции коим относится корь занимают второе место по заразности.

Сезонность — вирус хорошо развивается в странах с теплым климатом. Поэтому наименьшие показатели заболевания соответствуют августу-декабрю, а быстрое нарастание заболеваемости приходится на февраль-май месяцы. Своего пика он достигает в апреле.

При организации профилактических мероприятий против кори следует руководствоваться следующими принципами эпидемиологического контроля:

- вакцинация — установление постоянного контроля за использованием вакцин и их качеством в вирусологических лабораториях.
- полное соблюдение правил хранения и транспортировки вакцин.
- осуществление иммунологического контроля за вакцинацией детей.
- принятие мер по активному выявлению лиц, инфицированных корью, и ликвидация очагов заражения.

Также необходимо проводить общие противоэпидемические мероприятия такие как, изоляция больного на срок до 5 дней после появления сыпи и до 10 дней при возникновении осложнений, проветривание помещений в течение 30-45 минут, кварцевание палат, соблюдение режима и правил личной гигиены.

Наргиза ТИЛЛАБАЕВА,
Врач — эпидемиолог ЛОДЦ.



НА НАШЕМ ПРЕДПРИЯТИИ В ЧЕСТЬ 14 ЯНВАРЯ «ДНЯ ЗАЩИТНИКОВ РОДИНЫ» И 32-Й ГОДОВЩИНЫ СОЗДАНИЯ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, СОСТОЯЛОСЬ ПРАЗДНИЧНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ

11 января, на нашем предприятии, в честь 14 января «Дня защитников Родины» и 32-й годовщины создания Вооруженных Сил Республики Узбекистан, было проведено праздничное мероприятие под лозунгом «Армия Нового Узбекистана – символ могущества страны, высокой гордости и верности!».

В праздничном мероприятии приняли участие руководство предприятия, начальники отделов и цехов, рабочие и служащие, а также военнослужащие Восточного военного округа, сотрудники отдельного батальона управления охраны Национальной гвардии Республики Узбекистан.

Праздничное мероприятие открылось исполнением Государственного гимна Республики Узбекистан.

На торжествах с поздравительными словами выступили председатель правления АО «Farg'onaazot» Дилшод Маннонов, ответственный офицер

Восточного военного округа полковник Абдухает Умаров, командир отдельного батальона Управления национальной гвардии Фахриддин Мамаджонов.

Торжественное мероприятие посвященное Дню защитников Родины продолжилось концертной программой, составленной из музыкальных номеров лучших образцов национальной и зарубежной эстрады, в исполнении военного оркестра Восточного военного округа. Концерт поразил участников праздничного мероприятия разнообразием музыкальных жанров и образцовым профессионализмом

военных музыкантов, что добавило праздничную атмосферу данным торжествам. Мастерство и слаженность которое продемонстрировали военнослужащие в ходе показательного выступления по рукопашному бою и выступления почетного караула были встречены аплодисментами участников торжеств.

Также в этот день, в честь 14 января «Дня защитников Родины» состоялось награждение лучших сотрудников ведомственной военизированной охраны. Ценные подарки вручал председатель правления АО «Farg'onaazot» Дилшод Маннонов.



ПОЗДРАВЛЯЕМ ИМЕННИКОВ С 50-ЛЕТНИМ ЮБИЛЕЕМ!

Трудовой коллектив Акционерного общества «Farg'onaazot» - это как большая дружная семья. В ней работают представители различных профессий, которые своим честным и самоотверженным трудом вносят свой вклад в развитие предприятия. В январе месяце свой 50-летний юбилей отметили ряд работников предприятия, которые долгие годы работают на предприятии.

Среди них Спасатель I-категории Алижонов Хакимжон Юсуфжонович, электромонтер по ремонту электрооборудования цеха Электроснабжения Кузубаев Саид Рахматович и Охунов Максуд Ганижонович, водитель АТЦ Тухтасинов Хусанбой Абдулхаевич, оператор ДПУ цеха по производству продуктов Соды Турсуналиева Шохиди Адхамовна, старший мастер РМЦ Журабоев Шаробиддин Зайлобидинович, старший мастер цеха Связи Ахмадалиев Алишер Мухтарович, дежурная медсестра ЛОДЦ Тухтасинова Насибохон Ортиковна, слесарь цеха Внешнего водоснабжения Отахонов Шукрулло Обидович, бухгалтер Централизованной бухгалтерии Рафикова Гулсара Салиховна, рабочий производственных бань цеха АС-72М Жураева Хуршида Махмуджоновна и слесарь – ремонтник Нурматов Ислонбек Зулпонович, электромонтер цеха «Аммиак-3» Тухтасинов Хасанбой Абдулхаевич, электромонтер цеха Внутреннего водоснабжения и промышленной канализации Тоирова Дилором Амираалиевна и машинист насосных установок Тухтабаев Тассадук Тулкинович, слесарь цеха ЦРО Хакимов Файзулло Хошимович, энергетик цеха КИП и А Халилов Абдутолиб Абдумуталович.

С искренними чувствами и уважением от всего нашего многочисленного трудового коллектива примите поздравления с прекрасным юбилеем! 50 лет – великодушный возраст, чтобы наслаждаться жизнью, любить, радоваться и строить планы на будущее. Желаем Вам замечательного самочувствия, бодрости, приподнятого настроения и сил, позитивных событий в жизни, успеха в делах, уважения и понимания. Пусть все задуманное воплощается, пусть все Ваши мечты станут реальностью!

Исходя из формата газеты, творческим коллективом газеты было решено осветить трудовые биографии некоторых наших юбиляров.

Тухтасинов Хасанбой Абдулхаевич начал свою трудовую деятельность на предприятии в январе 1995 года оператором отделения Конверсия и МЭАО производства аммиака второй очереди по 4-му разряду.



За короткий срок освоил свое рабочее место и после сдачи экзамена приступил к самостоятельной работе.

В январе 1996 года Тухтасинов Хасанбой Абдулхаевич был переведен электромонтером по ремонту электрооборудования по 4-му разряду и проработал до реформирования цеха в отделение подготовки технологического газа (ОПТГ) цеха «Аммиак-3».

За период работы в цехе, Хасанбой Абдулхаевичу, благодаря неустанной работе над повышением своего профессионального уровня, был присвоен 6-ой разряд.

В связи с производственной необходимостью на него были возложены функции водителя автомобиля ГАЗ-53 и мотороллера «LI FAN».

Как характеризуют руководители цеха и коллеги, Хасанбой Абдулхаевич за время работы в цехе «Аммиак-3» проявил себя как исполнительный работник. Дружелюбный, общительный. Принимает активное участие в жизни коллектива. Пользуется уважением руководства и товарищей по работе.

Женат. Хороший семьянин. Они с супругой вырастили троих детей, сейчас занимаются воспитанием внука.

Тухтасинова Насибохон Ортиковна родилась 28 января 1974 года в городе Фергане. В 1991 году после окончания средней школы поступила в Маргиланский медицинский колледж, который окончила с красным дипломом. Трудовую деятельность начала в 1993 году медицинской сестрой в кардиологическом отделении больницы Ферганского нефтеперерабатывающего завода. С 2005 года работает медицинской сестрой в Лечебно-оздоровительном цехе Акционерного общества «Farg'onaazot». По словам коллег, она профессионал своего дела, которая имеет 30 летний медицинский стаж работы. Насибохон Ортиковна на нашем предприятии работает 19 лет, сегодня она выполняет функции дежурной медсестры. Имеет дружную семью, в браке воспитала двух взрослых сыновей и дочь. В данный момент дочь является студентом Ташкентского Университета мировых языков.

Материалы 3-й и 4-й полос подготовил Отабек БЕГИДЖАНОВ.

Kimyogar



MUASSIS:
«Farg'onaazot»
aksiyadorlik jamiyati

ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:
E'zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108,
Farg'ona shahri,
Sanoat ko'chasi, 222.
«Farg'onaazot» AJ.
Tel.: 242-66-01; 65-33

Gazeta Farg'ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Marg'ilon shahar, Turkiston ko'chasi 236 «B» - uy. Qog'oz bichimi A-2. Buyurtma: ____-son.

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 31.01.2024-yil.

Ushbu songa mas'ul: E'zozxon ABDULLAYEVA.
Rasmlar muallifi: Mirjalol G'ULOMNAZIROV.

Ushbu gazeta «Farg'onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.